

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA XURSHIDABONU BAXTIYAROVNA

**URSULA LE GUIN VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA
FENTEZI JANRINING LINGVOMADANIY QIYOSI**

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna

Ursula Le Guin va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida fentezi janrining
lingvomadaniy qiyosi.....3

Хасанова Хуршидабону Бахтияровна

Лингвокультурное сопоставление жанра фэнтези в произведениях Урсулы Ле
Гуин и Худойберды Тухтабоева.....23

Hasanova Khurshidabonu Bakhtiyarovna

The Linguocultural Comparison of the Fantasy Genre in the Works of Ursula Le
Guin and Xudoyberdi To'xtaboyev47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....51

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA XURSHIDABONU BAXTIYAROVNA

**URSULA LE GUIN VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA
FENTEZI JANRINING LINGVOMADANIY QIYOSI**

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.3.PhD/Fil1997 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Axmedov Oybek Saporbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Shodmonov Sulaymon
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «22» may soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (610 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «23» aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil «23» aprel dagi 25-14 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
ketibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi va lingvistikasi faqatgina badiiy asar tahlili bilan cheklanib qolmay, uning lingvomadaniy jihatlarini ham chuqur o‘rganishga intilmoqda. Hozirgi kunda adabiy jarayonda globallashuv ta’siri kuchayib borayotgan bir paytda fentezi janrining lingvomadaniy aspektda o‘rganish, milliy va universal qadriyatlarining qanday namoyon bo‘lishini tushunish, ushbu jihatlarini lingvistik va madaniy kontekstda o‘rganish, milliy adabiyotimizning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish, fentezi janridagi til, mifologik obrazlar, madaniy kodlar va ramzlarning qiyosiy o‘rganish o‘zbek va g‘arb fentezidagi madaniy xususiyatlarni nazariy asoslash va ilmiy talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettirar ekan, doimo tilshunoslik va adabiyotshunoslikning o‘zaro aloqadorligi masalasiga, millatning o‘ziga xos urf-odati, an’anasi muammolariga e’tibor qaratib kelingan. Badiiy adabiyot taraqqiyoti va xalqlar o‘rtasida adabiy-madaniy munosabatlarning kengayishiga, millatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi tan olinganligi bois lingvomadaniy xususiyatlarga ega lisoniy birliklar jihatlarini o‘rganish zaruriyati, til, nutq va madaniyat munosabatini yoritish ehtiyojini lingvomadaniyatning alohida soha sifatida shakllanish imkonini beradi. Shu bois, jahon miqyosida tan olingan fentezi yozuvchisi Ursula Le Guin va o‘zbek bolalar adabiyotida bu janrni o‘ziga xos uslubda rivojlantirgan muhim adiblardan biri Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarining lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlili o‘zbek fentezi adabiyotining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishga, G‘arb va Sharq adabiy maktablari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga va tilshunoslikdagi yangi yondashuvlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yuksak e’tibor bilan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bosqichda barcha sohalar kabi qiyosiy adabiyotshunoslik ham o‘z oldiga jahon standartlariga mos salmoqli tadqiqotlar yaratish vazifasini qo‘ydi. “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunish”¹ har birimizning kundalik shiorimizga aylanmog‘i darkor. Milliy o‘zlikni anglash, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, badiiy asarlarni jahonga tanitishga qaratilgan sayi-harakatlar yanada keng amalga oshirilmoqda. Xususan, jahon madaniyatining durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va o‘z navbatida kitobxonlarni umuminsoniy qadriyatlardan xabardor qilish, o‘zbek xalqining yuksak badiiylik asarlarini xorijiy mamlakatlarga yetkazishning ko‘lami tobora rivojlandi. Mana shunday taraqqiyot tamoyillari zamirida o‘zbek adabiyoti badiiy asar namunalari chet el kitobxonini e’tiboriga taqdim etish uchun sifatli va samarali tarjimani amalga oshirish bilan birga, adabitolararo durdonalarni qiyoslash

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan ma’ruzasi. 19-yanvar, 2021 yil.

adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasida chuqur izlanishlar olib borish ahamiyatini tobora kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qiyosiy adabiyotshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning leksik-semantik, leksik-sintaktik nazariy asoslarini yaratishda xorij va respublika olimlari Edna Andrews, Elena A. Maksimova, I.V.Arnold, C.Forceville, E.Maksimova, V.P.Moskvin, Yu.L.Obolenskaya, H.Abrams, J.Lapasov, O‘.Yusupov, J.Bo‘ronov, A.Abdiazizov, Q.To‘xtayeva, O.Mo‘minov, G‘.Salomov, I.G‘afurov, M.Sulaymonov, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urovning² ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga molik.

Shuningdek, jahonda til, adabiyot va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadbiq etish tilshunoslikning zaruriy muammolaridan biriga aylanganligi sababli lingvomadaniyat hamda tarjima nazariyasi uyg‘unligidagi tadqiqotlar

² Edna Andrews and Elena A.Maksimova Russian Translation Theory and Practice, Routledge, 2010; Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М., 2002; C.Forceville. Pictorial metaphor in advertising. – London, New York: Routledge, 1996; Ziaul H. Md. Translating Literary Prose: Problems and Solutions. Bulgaria, 2012. – P. 109.; Москвин В.П. Выразительные средства современной русской речи: тропы и фигуры. М., 2004. – С.248; Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, 1983. O.M. Mo‘minov va boshq., Practical Course in Translation, Toshkent, 2011; Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Ташкент, 2007. Буранов Д.Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., 1983. Abdiazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, 2010. –Б.175; Ю.Л.Оболенская. Художественный перевод и межкультурная коммуникация. М., 2006. –С.336; Abrams H. A Glossary of Literary terms. – United States of America, 1999; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. –Тошкент,1990. G‘afurov I. Trajimonlik mutaxassisligiga kirish, Toshkent, 2008.

mamlakatimizda ham son, ham sifat jihatdan takomillashmoqda³. Ayniqsa, bu borada Sh.Safarova, D.Ashurova O'.Yusupov, G.Boqiyeva, A.Mamatov, J.Yoqubov, D.Xudoyberganova, D.Djumanova, N.Djusupov, S.N. Isamuxamedova kabi olimlarning izlanishlarini yuzaga kelganligini e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, S.G.Vorkachayev, D.D.Lagayev, N.N.Dzida, E.B.Yeliseyeva, T.I.Gustomyasova, F.X.Xasanova, F.G.Fatkullina, A.P.Gabbosova kabi tilshunoslarning tadqiqotlari aynan shu mavzuga bag'ishlangandir.

Mazkur izlanish davomida birinchidan, fentezi va fantaziya tushunchasi hamda termini asosan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan keng ko'lamda o'rganilganligi, ammo hozirgi tilshunoslikda esa keng tadqiq qilinmaganligi kuzatildi. Qolaversa, qiyosiy planda ingliz va o'zbek adiblarining fentezi janridagi asarlari misolida deyarli tadqiqot olib borilmaganligi, ikkinchidan, ikki xalq ijodida fentezi va fantaziya janri lingvomadaniyatshunoslik doirasida yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mazkur ishning muhimligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, universal va milliy-madaniy lingvomadaniyatning badiiy asarda berilishi, mifologik va ertak motivlaridan zamonaviy shakl, vositalar, tarixiy sarguzasht, g'ayritabiiy hodisalar, arxetip uchastkalarga asoslangan va shu kabi so'zlar guruhi ikkala til ilmiy fantastika, xayoliy dunyo, fantaziya, sehrlilizm va boshqa janrlarni obdon o'rganish zarurati ham yo'q emas va shu bois birga fentezi janr xususiyatlari ingliz va o'zbek milliy-madaniy nuqtai nazaridan chog'ishtirma aspektda tadqiq qilinayotganligi dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

³ Palmer G.B. Toward a Theory of Cultural Linguistics. – Austin, 1996. – P. 348; Morain G. Kinesics and cross-cultural understanding. Culture Bound. Bridging the Cultural Gap in Language Teaching. Ed. J. Valdes. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 64–76; Serdihun B., Sivasish B. Language, Culture, and Translation of the Karbi: A Brief Study. India, 2012. – P. 562–564.; Adnan S. Translation of Cultural Terms. – Australia, 2017. – P. 53–62. 3 Саломов Ф.Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.232; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 2005. – Б.352; Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. – Ташкент, 1973. – С.159; Комилов Н. Хорезмская школа перевода (проблемы типологии и сопоставительной истории перевода в XIX в.: Автореф. дисс. филол. наук. – Ташкент, 1987. – С.37; Холбеков М. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в контексте перевода, критики и восприятия): Автореф. дисс. док. филол. наук. – Ташкент, 1991. – С.21; Гафуров И. Таржимашунослик мутахассислигига кириш. – Тошкент: Меҳридарё, 2008. – Б. 118; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.92.; Ашурова Д. Лексикон как отражение национально-культурной специфики языка. – М., 2003. – С. 76-81.; Юсупов Ў. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида / Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида – Тошкент, 2011. – Б. 49-55.; Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. док. филол. наук. – Ташкент, 1993. – С.46; Маматов А. Взаимодействие и взаимовлияние языка и культуры в процессе перевода. Бадий таржима тилшунослик, адабиётшунослик ва маданиятлараро алоқалар контекстида. – Жиззах, 2011. – Б. 31–32.; Ёқубов Ж. Француз тилида «муҳаббат» концептининг когнитив хусусиятлари. Олмоншунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2011. – Б. 107–111.; Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.102; Джуманова Д.Р. Лингвокультурологический аспект реалем. Русский язык в межкультурной коммуникации.– Иваново, 2012. – С. 218–222; Джусупов Н. Проблема концепта в современной лингвистике. Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2004. – С. 12–18.; Исамухамедова Н. Стилистическая адекватность перевода художественного текста. Дисс. канд.филол.наук. – Тошкент, 2007. – С.146.

Tadqiqotning maqsadi Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida fentezi janri lingvomadaniy xususiyatlarining o‘xshash va differensial belgilarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida fantaziya hamda fentezi janrlarini ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik bilan uyg‘un holda o‘rganish;

jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida fantaziya va fentezi janrlariga oid bildirilgan ilmiy qarashlar kuzatish hamda nazariy fikrlarga munosabat bildirish;

ingliz va o‘zbek badiiy asarlaridagi o‘zaro milliy-madaniy, umumiy, xususiy, o‘xshash va differensial belgilarni tahlil qilish;

ikki til badiiy asarlaridagi milliy-madaniy jihatlarni asoslash, fentezi janirining ifoda xususiyatlarini ochib berish;

fantaziyaning zamonaviy, afsonaviy, ilmiy, romantik, komik, qahramonlik, shahar fantaziyasi singari turlarini o‘rganish, ularni qiyoslanayotgan tillarda masallar, ertak xayollari, afsonalar, mif va asotirlar kabi janrlarga mansublik ko‘lamini asoslash;

fentezi janrining hayvonlar va o‘yinchoqlar, g‘alati va g‘ayritabiiy kuchga ega qahramonlar, komik, gotik, epik fentezi kabi klassifikatsiyalari xayoliy sodir bo‘ladigan voqealar aks etgan o‘ziga xos hamda sehrgarlik dunyosi sari yetaklashini ingliz va o‘zbek badiiy asarlari orqali tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o‘zbek adiblaridan Ursula Le Guin hamda Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida fentezi janri lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, konseptual, kompleks yondashuv, statistik, lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

har ikkala muallif ijodidagi fentezi janri badiiy kontseptsiyasi madaniy kodlar, metaforik til, mifologik asoslar va elementlar, afsonaviy toponimlar, ajoyibotlar olami, to‘qima obrazlar mushtarakligida, biroq ularning g‘oyaviy va badiiy yondashuvlari madaniy kontekst va adabiyotda turli yo‘nalishlar negizida voqelanganligi dalillangan;

Ursula Le Guin ijodida haqiqatni anglash, fantastik dunyolarida insoniyatning mavjud muammolari, ijtimoiy tizimlar va madaniyatlarni tahlil qilish, utopik va distopik jamiyatlar orqali odamning ijtimoiy va iqtisodiy muammolariga qarshi kurashish kabi fantastik uslubning jamiyatni tahlil qilishda yetakchilik qilishi asoslangan;

Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi bolalar adabiyotida didaktik, axloqiy va madaniy saboqlarni berish, o‘zbek xalqining qadriyatlarini, do‘stlik, sadoqat va adolat kabi axloqiy tushunchalarni yosh o‘quvchilarga yetkazish, qahramonning samimiylig, mardlik va xolislik kabi fazilatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchini

ijtimoiy mas'uliyatga va yaxshilikka chaqirish ustivorligida namoyon bo'lishi aniqlangan;

g'oyaviy yondashuv jihatdan Le Guin asarlarida insoniyatning kelajagi, ijtimoiy tizimlar, axloqiy tanlovlar, odamlar dunyoqarashini o'zgartirish yetakchilik qilsa, To'xtaboyevning asarlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalash, xalq an'analari va qadriyatlarini saqlash kabilar ustivorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek badiiy asarlarda o'zaro milliy-madaniy o'xshashlikning aks etishi va ular orasidagi differensial belgilarning lingvomadaniy vositalar orqali ifodalanishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek badiiy asarlarida fentezi shakli, mifologik tushunchalari, ularning ifodasi, ajoyibotlar olami, obrazlarni ifodalanishi va ularning hayot haqiqatiga qarama-qarshi tasvirlar nuqtai nazaridan asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida universal hamda milliy-madaniy lingvokulturemalarning badiiy asarlar ikki noqardosh xalq adabiyoti namoyondalari fentezi janrida yaratilgan asarlarini o'xshash va differensial jihatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, ishda qo'llangan metodlar va misollarning rasmiy manbalardan olingani, nazariy fikr, xulosa, taklif va tavsiyalarning asoslilik va amaliyotda tadqiq etilganligi, shuningdek, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, konseptual, kompleks yondashuv, statistik, lingvokulturologik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalar adabiyotshunoslik yo'nalishida tadqiqot ishlarini olib borishda, zamonaviy ingliz adabiyotini o'rganishda, ingliz tilida tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda badiiy asarning leksik-stilistik imkoniyatlari aniqlanganligi, semasiologiya, leksikologiya, semantik sintaksis, lingvomadaniyatshunoslik tadqiqot ko'lamining boyitilgani hamda xususiyatlari yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida adabiyot unsurlarini farqlash, xususan, "O'zbek adabiyoti", "Ingliz adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Badiiy matn tahlili", "Stilistika va matn tahlili", "Zamonaviy lingvistika", fanlaridan ma'ruza hamda amaliy mashg'ulot darslarida keng foydalanish, "Adabiyot nazariyasi", "Og'zaki va yozma nutq amaliyoti" "Tarjima nazariyasi" singari fanlar bo'yicha maxsus seminarlarni tashkil qilish, o'quv-uslubiy majmualar, lug'atlar, ma'ruza matnlari, magistrlik va PhD dissertatsiyalari bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirishda, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida fentezi janrining lingvomadaniy qiyosi bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

har ikkala muallif ijodidagi fentezi janri badiiy kontseptsiyasi madaniy kodlar, metaforik til, mifologik asoslar va elementlar, afsonaviy toponimlar, ajoyibotlar olami, to‘qima obrazlar mushtarakligida biroq, ularning g‘oyaviy va badiiy yondashuvlari, madaniy kontekst va adabiyotda turli yo‘nalishlar negizida voqelanganligiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-yanvardagi №01/4-03-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek badiiy asarlarda o‘zaro milliy-madaniy o‘xshashlikning aks etishi tahlil qilinishi, olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

Ursula Le Guinning fantastikasida haqiqatni anglash, fantastik dunyolarida insoniyatning mavjud muammolari, ijtimoiy tizimlar va madaniyatlarni tahlil qilish, utopik va dystopik jamiyatlar orqali odamning ijtimoiy va iqtisodiy muammolariga qarshi kurashish kabi fantastik uslubning jamiyatni tahlil qilishda yetakchilik qilishiga doir nazariy xulosalardan “O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatida 56-01/10 “Tarixiy yodgorliklar targ‘ibotida O‘zbekiston ziyoratgohlari katalogining (besh tillik) innovatsion imkoniyatlari” mavzuidagi xorijiy loyihasida foydalanilgan (“O‘zbekiston-Fransiya” do‘stlik jamiyatining 2024-yil 25-iyuldagi №112-son ma’lumotnomasi). Natijada qiyoslanyotgan tillarda universal va milliy-madaniy lingvokulturalarning badiiy asarlar tarjimalarida takomillashuviga erishilgan;

Xudoyberdi To‘xtaboyev fantastikasi bolalar adabiyotida didaktik, axloqiy va madaniy saboqlarni berish, o‘zbek xalqining qadriyatlarini, do‘stlik, sadoqat va adolat kabi axloqiy tushunchalarni yosh o‘quvchilarga yetkazish, qahramonning yengillik, mardlik va xolislik kabi fazilatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchini ijtimoiy mas’uliyatga va yaxshilikka chaqirish ustivorligida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Navoiy viloyati “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalari tahririyati davlat unitar korxonasida chop etilgan “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalardagi turkum maqolalarida foydalanilgan (Navoiy viloyati “Do‘stlik bayrog‘i” va “Znamya Drujbi” gazetalarini tahririyati davlat unitar korxonasining 2023-yil 18-dekabrda 01-26/164-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek asarlarida fentezi va fantaziya janr kategoriyasining milliy madaniy jihatlarini ochib berish, shuningdek ikki qardosh til bo‘lmagan tillar badiiy asarlarida ichki va tahqi xususiyatlarining umumiy o‘xshashlik va differensial belgilarini aniqlashda xizmat qilgan;

g‘oyaviy yondashuv jihatdan Le Guin asarlarida insoniyatning kelajagi, ijtimoiy tizimlar, axloqiy tanlovlar, odamlarni dunyoqarashni o‘zgartirish yetakchilik qilsa, To‘xtaboyevning asarlarida yoshlarni yaxshi axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalash, xalq an‘analari va qadriyatlarini saqlash kabilar ustivorligi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom,

yangi kun”, “Diyor 24”, “Imkoniyat”, “Najot bilimda”, “Inson qadri” teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-sentyabrdagi №01-02/165-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 166 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adabiyotshunoslikda fentezi janri ilmiy-nazariy asoslarining yoritilishi**” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bob 3 fasldan tashkil topgan. Fantastika va fentezi janrlarining farqi, o‘xshashligi, bog‘liqligi haqida fikr-mulohazalar hamda ilmiy fantastika janri va uning leksik-sintaktik xususiyatlari, fantastikada mif va ertak motivi shuningdek, Ursula Le Guin ijodida fantastika janrining o‘rni, Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida fantastika janrining roli va tadqiq qilinish muammolari o‘rganilgan. Fantastika va fentezi tushunchalariga doir mulohazalar, dunyo adabiyotshunosligi va tilshunosligida mavjud bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Ma’lumki, adabiyotshunoslikning o‘ziga xos xususiyati adabiyot davr hayotini, inson dunyosini tushunishning eng ishonchli vositasi bo‘lib, so‘z san’ati xalq dunyoqarashi, ruhiyatini aks ettiruvchi misoli oynadir. Zero, insoniyat azal-azaldan borliq hodisalarini bilish, anglash, o‘zi yashayotgan muhitni go‘zallashtirishga intiladi. Bu intilish zahirida mukammallikka erishish istagi turadi.

G‘arbu Sharqning barcha olimlari o‘z asarlarida adabiyot va uning ahamiyati haqida ko‘plab, turli-tuman fikr-mulohazalar bildirishgan. Jumladan, “Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bualo, Lessing, Gyote, Gegel singari yuzlab

donishmandlarning adabiyot haqidagi mulohazalari adabiyotshunoslikning fan sifatida ravnaq topishiga ta'sir ko'rsatgan"⁴ ligini e'tirof etish mumkin.

Amerika adabiyotidan ma'lumki, adabiy janr sifatida "fentezi" atamasi dastlab XX asr o'rtalarida ingliz tilida ishlatila boshlangan, AQShda ilmiy fantastika yo'nalishning ilk vakillari Edgar Rays, Berrouz, Myurrey Leynster, Edmond Gamilton, Genri Katter⁵ singari adiblar o'z asarlarida asosan kosmosga yetib borgan ilk sayyohlarning sarguzashtlari haqida hikoya qilishgan. Asr o'rtalariga kelib murakkabroq fantastika ustunlik qila boshladi. Amerikalik fantast-yozuvchilar Rey Bredberi, Robert Xaylayn, Frenk Xerbert, Andre Norton, Klifford Saymak, Ayzek Azimov, Robert Sheklining⁶ nomi butun dunyoga tanila bordi.

XX asrning ikkinchi yarmidan esa fentezi adabiyoti keng rivojlandi. Amerika fentezisining gullab-yashnashi 1930-yillarda Robert Govardning⁷ ijodi bilan boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida bu janr Rodjer Jelyazni, Pol Uilyam Anderson, Ursula Le Guin⁸ kabi yozuvchilar tomonidan rivojlantirildi. Fentezi yo'nalishining XXI asrdagi eng taniqli vakili Jorj R.R.Martin⁹ bo'lib, u xayolida yaratgan o'rta asrlar haqidagi "Taxtlar o'yini" kvazirealistik tarixiy romanining muallifi hisoblanadi. Bundan tashqari, fantastikadan o'zining ayrim jihatlariga ko'ra farqlanib turuvchi fentezi janrida ham qorishiq zamon ruhini aks ettiruvchi talay asarlar bitildi. Bularning eng mashhurlaridan biri Joann Rouling¹⁰ qalamiga mansub "Garri Poter" sikl romanlaridir.

Manbalarni kuzatib aytgach, fentezi so'zining dastlabki ma'nosi yunoncha "phantasia" so'ziga borib taqalib, "tasavvur, tashqi ko'rinish" deb tarjima qilingan. Fransuz tilida ham XIV asrda "fantaisie, phantasie" so'zlari ishlatilgan bo'lib, "ko'rish, tasavvur" ma'nolariga ega bo'lgan.

Fantastika haqidagi fransuz adibi Roje Kayya: "Fantastika – bu mo'jizadan bo'lak hech narsasi bo'lmagan dunyodagi haqiqatni o'zgartirish emas, qandaydir mumkin bo'lmagan borliqning muqarrar qonunlariga zid bo'lgan doirasiga ta'sir o'tkazishdir"¹¹, deb munosabat bildirgan bo'lsa, olim S.Todorov: "Fantastika kitobxonning obrazlar olamiga singib ketishini nazarda tutadi. Bu olam kitobxonning voqealar haqidagi shubhali farazlari bilan aniqlanishi"¹², amerikalik yozuvchi Rey Bredberi: "Fantastika bir kun kelib haqiqatga aylanishi mumkin, lekin fentezi xayol bo'lib qolaveradi"¹³, deya ta'kidlashadi.

⁴ I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.– T.: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 216 b.

⁵ Murray Leinster. The Black Galaxy. CreateSpace Independent Publishing Platform. 2017,– 142 p.; Edmond Hamilton. The Weapon from Beyond. Ace G-639,1967.–158 p.; Henry Kuttner, The Creature from Beyond Infinity. Reading Essentials, 2019.–225 p.;

⁶ Bradbury, Ray. Fahrenheit 451. Ballantine Books, 1978.; Robert Heinlein. Starship Troopers. Ace, 2006. –288 p.; Frank Herbert. Dune. Harry N. Abrams. –176 p.; Isaak Asimov. I, Robot. 2024 . –225 p.;

⁷ Edgar Howard. Skulls in the Stars. White Press, 2015. 24 p.;

⁸ Ursula K. Le Guin. A Wizard of Earthsea. Clarion Books, 2012.–272 p.;

⁹ George R.R. Martin. A Game of Thrones. Bantam, 2003.– 819 p.

¹⁰ J.K.Rowling. Harry Potter and the Cursed Child.–860 p.

¹¹ Кайя Роже. В глубь фантастического. Отраженные камни. Жанр: Культурология. 2006.

¹² Todorov S. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. Ithaca: Cornell University press, 1975.

¹³Ray Bradbury: the science of science fiction/ The Christian Science Monitor/ Nov. 13, 1980, New York

Zamonaviy nemis adabiyoti vakillari ham fantastika va fentezi janrlarida sezilarli darajada ijod qilishadi. Jumladan, Kerstin Girning “Тaymles”, “Замок в облаках”, “Die Mütter Mafia”, “Vergiss mein Nicht”, Xennen Bernxardning “Битва королей. Огонь элфов”, “Мест драконов. Закованный эльф”, Изабел Шмитт-Эгнернинг “Серая принцесса” va Mara Vulfning “Как шёпот времени”¹⁴ kabi bir qator asarlari hozirgi kun kitobxoniga manzur bo‘lmoqda.

Fentezi janrida ijod qilgan rus olimlari Ye.V.Smirnova¹⁵, L.V.Gopman¹⁶ o‘zbek tadqiqotchisi R.Ibragimova singarilar ham fantastik atama va tushunchalar to‘g‘risida ahamiyatli fikrlarni bildirishshadi. Darhaqiqat, fantastika janr sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uning o‘z tarkibida ham kichik epik turlar yoki elementlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Fentezi olami o‘ziga xos olam bo‘lib, inson ruhiyatida uni sehrarlik dunyosi sari yetaklaydi.

Fantastika va fentezining tabiati va uning asosiy belgilari haqida bildirilgan jahon va milliy adabiyotshunoslikdagi fikr-mulohazalar juda ko‘p va ularni o‘rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur janrlarga berilgan ta’riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi va bir-birini taqozo etadi.

Ta’kidlash lozimki, fantastikada mif va ertak motivlari ko‘pincha asosiy elementlar hisoblanadi. Ular fantastika asarlarini boyitadi, ularning chuqur ma’nolarini ochib beradi va o‘quvchilarni qiziqtiradi. Bu elementlar fantastika janriga turli xil qahramonlar, syujetlar va muhitlar orqali kirib keladi.

Mif va ertaklarda mavjud bo‘lgan arxetiplar, masalan, qahramonlik sayohati, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, topqirlik bilan muammolarni yengish kabi mavzular fantastikada o‘ziga xos tarzda ishlatiladi. Fantastik asarlarda mif va ertak motivlarining ramziy ahamiyati katta. Fantastikada mif va ertak motivlari ko‘pincha zamonaviy muammolarni ochib berish uchun ramziy vosita sifatida ishlatiladi. Mif va ertak motivlari fantastik koinotga chuqurlik va tarix qo‘shadi, ular o‘quvchiga asarda tasvirlangan dunyoni boyroq va realroq his qilish imkoniyatini beradi. Mif va ertaklar fantastikaga qadimiy tushunchalar bilan zamonaviy g‘oyalarni sintez qiladi.

Yuqoridagi fikr va tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, fantastikada mif va ertak motivlarining qo‘llanilishi asar uchun chuqur va mazmunli kontekst yaratadi.

Jahon adabiyotiga ilmiy fantastika va fantaziya janrida yozilgan asarlar muallifi Ursula Le Guin XXI asrning eng ko‘zga ko‘ringan va serqirra yozuvchilaridan biridir. 2003-yilda Le Guin fentezi janriga qo‘shgan hissasi uchun “Ilmiy fantastika bo‘yicha buyuk magistr” unvonini olgan birinchi ayol bo‘ldi.

Romanlar, qisqa hikoyalar, she’rlar, insholar to‘plamlari, bolalar uchun kitoblar, ssenariylar yozgan, bundan tashqari, ilmiy-fantastik antologiyalarni tahrir

¹⁴ Kerstin Gier. Timeless. Vydavničnyj Dim "Škola", 2017. – 348 p. Hennen Bernhard. The Elven. Amazon Crossing; Translation edition, 2019. – 336 p.; Isabell Schmitt-Egner. Grauprinzessin. Kindle Edition, 2020. – S.301.

¹⁵ Смирнова Е.В. Мир фэнтези – вымысел или реальность? Мировая словесность для детей и о детях. – Вып.10. М., 2005. – С.207.

¹⁶ Гопман В.Л. Фэнтези Краткая литературная энциклопедия терминов и понятий. – М.:Н.П.К.Интелфак. –С.1162.

qilgan va hatto ba'zi asarlarni tarjima qilgan yozuvchi Ursula Le Guin fantastik olamlarni yaratayotib, ularning mavjudligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, chunki, ularning barcha g'ayrioddiyliklarga qaramay, bu olamlar odamlarning yagona dunyosining ajralmas qismlaridir va shuning uchun ular haqiqatdir.

Le Guin fentezi janri xususida shunday deydi: "We read books to find out who we are. What other people, real or imaginary, do and think and feel... is an essential guide to our understanding of what we ourselves are and may become" (Le Guin, 1979). Ya'ni, "biz kimligimizni bilish uchun kitob o'qiymiz. Haqiqat yoki hayolotga moyil kishilar boshqalar nima qilishlari, o'ylashlari va his qilishlari ... o'zimiz kim ekanligimiz va nima bo'lishimiz mumkinligini tushunishimiz uchun muhim qo'llanmadir".

Le Guinning fantastik asarlari odatda insonning tabiat bilan muvozanatli munosabatini saqlashga urg'u beradi. Yozuvchi asarlarida jamiyat tuzilishini tahlil qilish, madaniyatlararo aloqalar va turli hayot falsafalarini o'rganish, inson va tabiat munosabati, genderni tahlil qilish, falsafiy masalalarni ko'tarish va yangi dunyoqarashlarni taqdim etish g'oyasi yotadi, olimaning asarlari nafaqat o'quvchini xayolot olamiga olib kiradi, shu bilan birga zamonaviy jamiyatning turli muammolari va ularni hal etish yo'llari haqida fikrlashga undaydi.

O'zbek adabiyotining yirik yozuvchilaridan biri Xudoyberdi To'xtaboyev o'z asarlarida fantastika janri bilan birga fentezi janriga ham keng e'tibor qaratgan yozuvchilardan biridir. Yozuvchi o'zining asarlari orqali, yuqori ma'naviy, falsafiy, diniy tushunchalar va shuningdek, o'zgacha yaratilgan dunyolar orqali jamiyat, insoniyat va jahon nazariyasi haqida fikrlashni mujassamlaydi. Yozuvchining fantastika janrida yozilgan ertaklarini hikoyaviy tahlil qilib turib uning bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta, o'z o'quvchisini ko'z oldiga keltirib yozganligi kuzatiladi. Yana shuni aytish joiz bo'ladiki, yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi ilgari asarlariga nisbatan bu "Sehrii qalpoqcha" asarida yana ham chuqurroq seziladi. "Sariq devni minib" asarini qiziqarli syujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi – bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi" sarguzasht romani uch qism ("O'rtoq polkovnik", "Sariq devni quvib", "Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgan") dan iborat.

Tahlillarda kelib chiqib, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida fantastika janri bilan birga fentezi janriga boy ekanligini quyidagi fikrlar bilan asoslaymiz:

X.To'xtaboyevning asarlari odatda xayoliy elementlarga ega bo'lib, uning qissalari va romanlari odamlar uchun qiziqarli bo'lgan fantastik dunyolar va hodisalarga aylanadi. X.To'xtaboyevning asarlari tasavvufiy mantiqiylikka asoslangan. Yosh avlodni tarbiyaviy va ma'naviy o'sishi uchun ijod qilgan Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida fantastika janri tahlili ayniqsa bolalar adabiyotida, fantastik elementlari orqali o'quvchilarga murakkab g'oyalarni yetkazishda katta ahamiyatga ega. Fantastik unsurlar orqali hayotiy masalalarni

yoritish, fantastika orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, milliy qadriyatlarni hamda bolalar tasavvurini boyitish va kashfiyotga yo'naltirishga chorlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Fantastika janri umumiy mavzularining o'ziga xos talqini”** deya nomlangan bo'lib, fantastika – sehr va sehrli buyumlar, fantastika – yaxshilik va yomonlik mavzusi, ilmiy fantastikada – ilm-fan mavzusi kabi uch fasldan tarkib topgan.

Fantastikaning adabiyot, san'atning boshqa tur va janrlaridan farqi shuki, uning tasvir sohasi amalda mavjud bo'lgan hayot emas, balki turmush haqidagi umumiy tasavvurdan kelib chiqadigan hayotdir. Shu o'rinda fantastika – sehr va sehrli buyumlar haqida olimlarning nazariyalarini aytib o'tsak, Tzvetan Todorovning nazariyasiga ko'ra, fantastika real va fantastik voqeliklarning to'qnashuvi natijasida paydo bo'ladi. Sehr bu to'qnashuvni ifodalaydi va hikoyaning o'ziga xosligini belgilaydi.

Umberto Eco fantastika va fentezi asarlaridagi simbolizm va mifologik elementlarni o'rganib, sehrli buyumlar ko'pincha madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega эканлигини, J.R.R.Tolkien “On Fairy-Stories” maqolasida, sehrli dunyolar va buyumlar tasavvurni kengaytirish va o'quvchini yangi olamlar bilan tanishtirish uchun xizmat qilishini асослашади. M.Gorkiy ta'rificha: “hammadan ham “uydirma” hodisalarni oldindan ko'ra biluvchi tafakkurimizning ajoyib xususiyati ibratlidir.

Ҳақиқатдан ҳам сеҳр фантастика ва фентези жанрларида асосий элемент hisoblanadi.

Sehri-fantastik ertaklarda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g'ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g'ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ertakchilar xayoliy “uchar gilamlar”ni aeroplanlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari, afsonaviy tez harakatlama parovoz, gaz va elektromotorlar bunyodga kelmasdan birmuncha vaqt ilgari bilganликларини айтиш мумкин: *oynayu jahonnamo – televizor, uchar gilam – samolyot, o'zi yurar etik yoki kovush – mashina, poezd, ur to'qmoq – zamonaviy avtomat qurollar va hokazo* kabilar. Shuningdek, *sehri-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin* singari g'ayritabiiy personajlar – demonologik obrazlar ishtirok etadi. Bunday xususiyat *Xizr, Semurg', yalmog'iz kampir va ajdar (uch boshli, yetti boshli)* kabi mifologik-personajlarga ham xos. Biroq Xizr, Simurg' personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy mohiyatga ega. Yalmog'iz kampir esa goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o'ta shafqatsiz salbiy personaj sifatida harakat qiladi.

Sehri-fantastik ertaklarning sujeti sarguzasht voqealar tizimidan iborat. Voqealar rivojida tilsim muhim o'rin tutadi. Masalan, *Uch, to'rt, besh, olti, to'qqiz, qirq singari sehri raqamlar (uch yo'l, uch aka-uka, uch opa-singil, uch kecha-kunduz, yetti pahlavon, yetti pari, yetti kecha-kunduz, yetti bosh; qirq kecha-kunduz, qirq bahodir kabi an'anaviy ifodalar), ur to'qmoq, ochildasturxon, oynayu jahonnamo, hayot suvi, sehri olma, uchar gilam, bulbuligo'yo, bir deganda qirq gaz cho'ziladigan qilich, sirli sandiq* singari jodulangan sehri predmetlar ertak

sujeqidagi motivlar yoʻnalishini belgilovchi muhim badiiy unsurlar vazifasini oʻtaydi.

Ertaklarda va ular ijrochiligida tayyor qolipga aylangan anʼanaviy birikmalar juda koʻp uchraydi. Ular oʻquvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqealarni bir-biriga bogʻlashda, uzoqni yaqin qilishda muhim sanaladi. Chunonchi, “*qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma*”, “*qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz choʻzilibdi*”, “*endi soʻzni boshqa tomondan eshiting*”, “*shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib*”, “*oy desa ogʻzi bor, kun desa-koʻzi bor, shirindan shirin soʻzi bor*”, “*suv ichsa tomogʻidan, sabzi esa biqinidan koʻrinadi*”, “*kulsa – ogʻzidan gullar sochilar, yursa-oyogʻidan tilla sochilar*”, “*yoʻl yurib, yoʻl yursa ham moʻl yurib, togʻu sahro, choʻl yurib va h.k.*” kabilar shular jumlasidandir. Fikrimizcha, insonning ajoyib xususiyatlaridan biri “faraz”ni ham fantaziya, “uydirma” vujudga keltirib tarbiyalagan.

Maʼlumki, ertaklar fantastikaning tutgan oʻrni, meʼyori va funktsiyasiga qarab ikki guruhga boʻlinadi. Sehr va sehrli buyumlar fantastika va fentezi janrlarining ajralmas qismidir. Sehr fantastika va fentezi janrlarida asosiy element hisoblanadi. Sehr: “Garry Potter” seriyasida sehrgarlar va sehrgar maktabi Xogvarts hikoyaning asosini tashkil qiladi. Sehrli darslar, afsunlar va sehrli mavjudotlar juda koʻpdir.

Sehrli Buyumlar: Sehrli tayoqchalar, koʻrinmas plash, va Xorcruklar hikoyaning muhim elementlari hisoblanadi. Bu buyumlar qahramonlarning vazifalarini bajarishida yordam beradi va hikoyaning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi (J.K. Rowlingning “Garry Potter” Seriyasi).

Sehr: “Narniya Xronikalari”da sehr va moʻjizalar dunyosi mavjud. Narniyaning oʻzi sehrli dunyo boʻlib, unda turli xil sehrli mavjudotlar va kuchlar mavjud.

Sehrli Buyumlar: Sehrli shkaf, u orqali bolalar Narniyaga oʻtadilar, va Aslanning sehrli kuchlari hikoyaning asosiy qismlaridir.

Hozirgi kungacha imiy fantastikaning tematik kenligi, yondashuvlar koʻlami quyidagi mavzular bilan chegaralanib qolganligini aytish mumkin: Kosmosga sayohat – ushbu yoʻnalishda yozuvchilar quyosh tizimiga yaqin boʻlgan sayyoralarga amalga oshirilgan parvozlar yoki sayyoramizga yaqin boʻlgan yulduzlar haqida yozishadi.

Parallel olamlar haqida – bunday uslubda yaratilgan asarlarda bizga parallel boʻlgan olamlar, sayyoralar haqida yoziladi.

Ilmiy fantastika janri ilm-fan mavzularini yoritish, texnologiyalarni oldindan koʻra olish va ularning insoniyatga taʼsirini tahlil qilishda muhim oʻrin tutadi. Ushbu janr asarlarida ilmiy bilimlar va farazlarga asoslangan voqealar sodir boʻladi, va ular insoniyat uchun ilm-fan va texnologiyaning qanday imkoniyatlar va xavf-xatarlar olib kelishi haqida oʻylashga undaydi. Ilmiy fantastika koʻpincha kelajakdagi ilmiy yutuqlar, kashfiyotlar, madaniy hamda axloqiy oqibatlarini tasvirlaydi.

1. Kelajak texnologiyalarining taʼsiri. Ilmiy fantastika kelajakda mavjud boʻlishi mumkin boʻlgan texnologiyalarni, ularning imkoniyatlarini va insoniyatga taʼsirini oʻrganadi. *Masalan, sunʼiy intellekt va robotlar haqidagi asarlar, xususan,*

Isaak Asimovning "Robotlar" turkumidagi hikoyalari, robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalarining kelajakda insoniyat bilan munosabatga ega bo'lishi mumkinligi haqida ko'plab savollar qo'yadi.

2. Ilm-fan va axloqiy masalalar. Ilmiy fantastika ilm-fan bilan bog'liq axloqiy masalalarni yoritadi, ilmiy kashfiyotlar oqibatida paydo bo'ladigan axloqiy muammolar keng o'rganiladi. Masalan, Jurassic Park romanida genetik muhandislik orqali dinozavrlarni qayta yaratish insoniyatning tabiat bilan o'ynashi xavfli ekanini ko'rsatadi.

3. Kosmik tadqiqotlar va boshqa sayyoralarga sayohat. Ilmiy fantastika janrida koinotni o'rganish va boshqa sayyoralarga sayohat kabi mavzular ko'p uchraydi. *Misol uchun, Arthur C. Clarkening "2001: A Space Odyssey" asarida insoniyatning kosmosdagi sayohati va sun'iy intellekt bilan ishlashdagi muammolari tasvirlanadi. Bu asarda kosmosni zabt etish insoniyatning kelajagiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va sun'iy intellekt bilan ishlashdagi xavf va imkoniyatlar tahlil qilingan.*

4. Genetik muhandislik va inson evolyutsiyasi. Ilmiy fantastikada genetik muhandislik orqali insoniyatning kelajakdagi shakllanishi, evolyutsiyadagi o'zgarishlar kabi mavzular ham keng o'rin oladi. *H.G. Wellsning "The Island of Doctor Moreau" romanida olim genetik tajribalar orqali hayvonlarni odamga o'xshatishga urunadi. Ushbu fantastik hikoya ilm-fanning cheksiz imkoniyatlari va insoniyat axloqiy jihatdan buning uchun qanday mas'uliyat olishi kerakligi haqida chuqur fikr yuritadi.*

5. Insoniyat va texnologiya o'rtasidagi munosabatlar. Ko'plab ilmiy fantastika asarlari texnologiyaning insoniyat hayotidagi o'rnini tahlil qiladi va insonning texnologiya bilan uyg'unlashuvining mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy tomonlarini yoritadi. *William Gibsonning "Neuromancer" romanida kibermakonda yashash va odamning raqamli dunyo bilan uyg'unligi o'rganiladi. Raqamli inqilob va texnologiya taraqqiyotining insoniyat ongi va jamiyatiga ta'siri haqida fikrlashga chorlaydi.*

6. Ilm-fanning chegaralari va cheklovlari. Ilmiy fantastika ko'pincha ilm-fanning cheklanganligini ko'rsatadi va inson bilimining cheksiz emasligini ta'kidlaydi. *Masalan, Stanislaw Lemning "Solaris" asarida insoniyatning boshqa aql-idrokka ega mavjudotlar bilan aloqa qilishdagi qiyinchiliklar, inson ongining intellektual mavjudotlarni tushunishdagi bilim, inson bilimining chegaralarini eslatadi.*

Xulosa qilib aytganda, ilmiy fantastika janri ilm-fan yutuqlari va kashfiyotlarini o'ziga xos tarzda o'rganadi va insoniyatni kelajakda kutayotgan imkoniyatlar va xatarlarga e'tibor qaratadi. Ushbu janr asarlari nafaqat texnologiyalarning rivojlanishini, balki ularning jamiyat, axloq va madaniyatga ta'siri chuqur tahlil qiladi.

"Ursula Le Guin va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida g'oyaviy va badiiy tadqiq" deb nomlangan uchinchi bobda Ursula Le Guinning "O'rtayer dengizi ustasi" asarini lingvomadaniy ifodasi hamda Xudoyberdi To'xtaboyev

“Sariq devni minib” asarini lingvomadaniy tahlili, иккала ёзувчи asarlarida fantastika janrining o‘xshash va farqli jihatlari tahlilga tortilgan.

X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari o‘zbek adabiyotidagi fantastik janrga oid durdona asar sanalib, undagi muallifning betakror bayon uslubi, turli adabiy janrlar asosida milliy-madaniy jihatlarning o‘ziga xos stili yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, ushbu sarguzasht romanda o‘zbek milliy til xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan: “qanchadan-qancha” (ko‘plab); “yog‘ochga posangi bo‘lgancha” (qotib, qimirlamay); “ko‘z yumib-ochguncha” (tezda); “o‘ngi-tersiga qaramay” (shoshilib); “hushidan ozay deb” (qiynalib) singari ravish so‘z turkumiga oid iboralar so‘z qo‘shilmalari va turg‘un so‘z birikmalari asosida hosil qilingan deyish mumkin.

Shuningdek, asardagi: “ko‘rganda og‘zingiz suv ochib ketadigan” (shirin va totli); “qarasang, do‘pping tushib ketadigan” (baland); “besh kishining ham qulochi yetmaydigan” (yo‘g‘on, keng); “bir lankalik” (bir tutam); “tarbiyasi buzilib qolgan” (tarbiyasi salbiy tomonga o‘zgargan); “qoqboosh” (aqli past); “katakdan qochib chiqqan tovuqdek” (shoshilib); “yeng shimarib” (astoyidil); “tug‘adigan tovuqdek” (bezovta); “qo‘l-oyog‘i chaqqon” (chaqqon) singari sifat so‘z turkumiga oid frazeologizmlar “do‘ppi”, “lanka”, “yeng”, “katak” kabi milliy til xususiyatini yaqqol o‘zida aks ettiradigan terminlar atrofida birikib, asar mazmuni koloritini oshirishga xizmat qilgan.

